



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

2023/4

**TA'LIM VA
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№ 2023
aprel

<p>Muassis: Buxoro davlat universiteti Fan va ta'lim MChJ</p> <p>Bosh muharrir: Ma'murov Bahodir Baxshullayevich</p> <p>Jamoatchilik kengashi raisi: Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori</p> <p>Tahririyat kengashi raisi: Maxmudov Mels Hasanovich</p> <p>Mas'ul kotib: Akramova Gulbahor Renatovna</p> <p>Texnik muxarrir: Davronov Ismoil Ergashevich</p> <p>Tahririyat manzili: Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy</p> <p>Telefon: +998(90)744-00-22</p> <p>E-mail: eirjurnal2020@gmail.com</p> <p>Jurnalning elektron sayti: www.interscience.uz</p> <p>Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrda 306/6-son Qarori bilan PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan</p> <p>Bosishga ruxsat etildi: 28.02.2023 y. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5. Buyurtma raqami 1.23 «FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etiladi. Buxoro shahar</p> <p>Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan</p> <p>Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi</p> <p>«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi</p> <p>Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir</p>	07.00.00 – TARIX FANLARI	
	Рашидов О. Профессор Сулаймон Иноятов қутлуғ 85 ёшда	7
	Mamatov B. T. XVII asrning birinchi yarmida Buxoro xonligining tashqi siyosatida bahodir yalangto'sh	10
	Raxmatulloev M. X. Yangi O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari faoliyati qonun himoyasida	18
	Қўлдашев Ш. Т. “Тарихи Азий” асарида Жанубий Қозоғистон шаҳарлари тарихини ёритилиши	23
	Saidov J. O. Amir Temur va temuriylar davri savdo va madaniy aloqalarida Jizzax vohasining tutgan o'rni xususida	28
	Utayeva F. X. Teshayeva Yulduz Hakim Buxoro to'qimachilik kombinatida mutaxassislarning o'rni va oilalarning ish bilan ta'minlanishi	33
	Сиддиқов И. Б. Бўлажак тарихчиларда тарихий онгни шакллантириш асосида инфор­мацион-аналитик компетентликни ривожлантиришнинг педагогик тизими масаласига доир	40
	Зарипов О. О. “Тарихи Ҳумоюн” Бухоро амирлиги тарихини ўрганишда муҳим манба	46
	10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
Шарипова Л. Тилак Жўра шеърятининг ўзига хосликлари	53	
Атахо'jayeva Sh. A. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijtimoiy intellekt xususiyatlari	57	
Орипова Г. М. Персонажи лирикада лирик кечинма ифодаси	63	
Mamadjanova Maftunahon Uktamovna Epitekning lingvistik tabiati	69	
Xajiyeva D. A. Erkin Vohidov ijodida folklorning ertak janriga munosabat	72	
Hamdamova Z. Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini shakllantirishda mashqlarning o'rni	78	
Hamidov H. A. Sport jurnalistlari nutqida metaforalarning ifodalanishi	83	
Jakbarova M. I. Ona tilida nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi	88	
Murodova Sh. I. Ona tili va adabiyot darslarida o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari	94	
Norova I. M. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni chiroyli yozishga o'rgatish	99	
Omonboeva N. E. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'quv lug'atlari ustida ishlash	103	
Umarova N. Z. Oliy ta'lim tizimida o'quv topshiriqlaridan foydalanish	107	
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI		
Ma'murov B. B., Umarov A.T. Akmeologik yondashuv asosida jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammo va yechimlari	112	

Abduraxmanov SH. N. O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda sharq mutafakkirlarining ta'lim- tarbiyaviy ahamiyoti	118
Abduraxmonova Sh. R., Tillaboyev A. M. Oliy ta'lim muassasalarida astronomiyadan kuzatishlarni tashkil etish metodikasi	121
Akramova G. M. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy faoliyatga deontologik tayyorlashning o'ziga xos jihatlari	125
Арипова Е. А., Ким И. Л., Сурков Д. Ю. Математика — это весело?	129
Бабаева Ш. Б. Алгоритмическая система упражнений по моделированию синтаксических понятий в обеспечении непрерывности на уроках родного языка в начальных классах	137
Vaxriddinov N. B. Kredit-modul tizimida talabalarning ta'lim olish imkoniyatlari, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda didaktikaning ahamiyati	143
Bobonazarov O. A. Bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishning falsafiy va pedagogik-psixologik jihatlari	147
Bozorov A. B. Zargarlik san'atining dunyo xalqlari hayotidagi o'rni va ahamiyati	152
Гулямов Дж. Р., Акрамова Г. Р., Азимжонova P. P. К вопросу педагогического отклонения в поведении учащихся: сущность, факторы и причины возникновения	155
Джабборова Ю. Дж. Махмудхўжа Бехбудийнинг хукук соҳасидаги ислохотлари	163
Djurayeva M. Tarbiyalanuvchilarni gimnastika sport faoliyatiga hissiy-irodaviy tayyorlash shart-sharoitlari	168
Ermuminov A. T. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish muammosi	171
Ibadullaeva Sh. I. Organization of inclusive education in art classes.	176
Ismatullaeva S. R. Dzyudo sport turi bo'yicha kattalar o'rtasida toshkent "grand slam" 2023- taxlil natijalari	182
Irisboyeva Y. U. Muloqotga yordam beruvchi omillar va to'siqlarni o'rganish va tahlili	190
Jumageldiyeva M. A., Tillaboyev A. M. Umumiy o'rta ta'lim maktablarda astronomiyadan nomoyishli ko'rgazmalar o'tkazish	195
Jumayeva F. F. Formation of legal consciousness among elementary school students as a pedagogical problem	199
Каримова М. Ж. Амир Темурнинг ҳарбий фаолияти	205
Mamatov D. K. Chizmachilik darsida talabalarda kognitiv kompetensiyani rivojlantirish texnologiyasi	210
Mamatqulov Shuxrat Nazarovich Ilg'or xorij tajribasi asosida maktablarda ta'limni tashkil etishning zamonaviy usullari	217
Махмудов М.К. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчилари педагогик қобилиятлари таснифи	222
Muhammadiyeva Z. B. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning ijodkorlik kompetentligini shakllantirish metodikasi	227
Musayev A. Sh. Mustaqil ta'limni tashkil etishda ta'lim platformalari bilan ishlashning samaradorligi	233
Nasimova N. Q. Integrativ yondashuv asosida maktabgacha yoshidagi bolalarda tayanch kompetensiyalarini takomillashtirish uchun tarbiyachilarga qo'yiladigan talablar.	239
Omonova R. R. Tasviriy san'at darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanib o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish muommolari	245
Qodirov J. M. Qishloq maktab o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda yangicha yondashuv holatining hozirgi vaqtdagi ahvoli hamda didaktik imkoniyatlari	250
Rahmonov I. U., Niyozov N. N., Nematov L. A. Virtual laboratoriyalar va o'quv simulyatorlari: afzallik va kamchiliklar	254
Raxmonqulov X. B. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish texnologiyasi samaradorligi	260

BUXORO TO'QIMACHILIK KOMBINATIDA MUTAXASSISLARNING O'RNI VA OILALARNING ISH BILAN TA'MINLANISHI

*Utayeva Feruza Xolmamatovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti*

*Teshayeva Yulduz Hakim qizi,
Buxoro davlat universiteti 2- kurs magistr
0000-0003-1759-5365 2*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Yengil sanoatning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan to'qimachilik sanoati tarixiga to'xtalib o'tilgan. To'qimachilik sanoati ekologiyaga ko'p salbiy oqibatlari bo'lmaganligi sababli, aynan, aholi istiqomat qiladigan hududlarda to'qimachilik fabrikalari qurilgan. Jumladan, Buxoro to'qimachilik kombinati Buxoro shahrida aholi istiqomat qiladigan maydonga yaqin joyda 76 gektar maydonga inshootlar qurilib, fabrikalarda paxtadan ip-gazlama ishlab chiqilib, ko'plab oilalar ish bilan ta'minlangan. Qarovsiz va tashlandiq joylar o'zlashtirilib, yirik Buxoro to'qimachilik kombinati bunyod etilgan. Shaharni bevosita qishloq va tumanlar bilan bog'lovchi ishlab chiqarishga moslashtirilgan fabrikalar faoliyat yurita boshladi. O'zbekiston yengil sanoati vazirligi rahbarligida respublika viloyatlaridagi to'qimachilik fabrikalar bilan hamkorliklar o'rnatilgan. Maqolada, aholining moddiy ehtiyojlarini rivojlantirishga xizmat qilgan jihatlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: To'qimachilik sanoati, mutaxassis, oilalar, aholi, ip-gazlama, fabrika, mexanika zavodi, ishlab chiqarish, ixtisoslik.

РОЛЬ СПЕЦИАЛИСТОВ И ТРУДОУСТРОЙСТВО СЕМЕЙ НА БУХАРСКОМ ТЕКСТИЛЬНОМ КОМБИНАТЕ

*Утаева Феруза Холмаматовна
доцент Бухарского государственного университета*

*Тешаева Юлдуз Хаким кызы
Бухарский государственный университет 2 курс магистр*

Аннотация: В этой статье рассматривается история текстильной промышленности, одной из важнейших отраслей легкой промышленности. Поскольку текстильная промышленность не имеет большого негативного воздействия на экологию, именно в густонаселенных районах были построены текстильные фабрики. В частности, вблизи жилого района Бухарский текстильный комбинат в городе Бухара на площади 76 гектаров были построены объекты, на фабриках была разработана хлопчатобумажная пряжа, многие семьи получили работу. Были освоены заброшенные и брошенные места и построена крупная Бухарская текстильная фабрика. Начали работать приспособленные к производству заводы, напрямую связывающие город с селами и районами. Под руководством Министерства легкой промышленности Узбекистана налажено сотрудничество с текстильными фабриками в регионах республики. В статье показаны аспекты, которые служили развитию материальных потребностей населения.

Ключевые слова: Текстильная промышленность, специалист, семьи, население, пряжа-газировка, фабрика, механический завод, производство,

специализация.

THE ROLE OF SPECIALISTS IN THE BUKHARA TEXTILE COMBINE AND THE EMPLOYMENT OF FAMILIES

Utayeva Feruza Kholmamatovna
associate professor of Bukhara State University

Teshayeva Yulduz Hakim qizi
Bukhara State University 2nd year magistr

Abstract: This article examines the history of the textile industry, one of the most important branches of light industry. Since the textile industry does not have a large negative impact on the environment, it was in densely populated areas that textile factories were built. In particular, facilities were built near the residential area of Bukhara Textile Mill in the city of Bukhara on an area of 76 hectares, cotton yarn was developed in factories, many families got jobs. Abandoned and abandoned places were reclaimed and a large Bukhara textile factory was built. Factories adapted for production began to work, directly connecting the city with villages and districts. Under the leadership of the Ministry of Light Industry of Uzbekistan, cooperation has been established with textile factories in the regions of the republic. The article shows the aspects that served the development of the material needs of the population.

Key words: Textile industry, specialist, families, population, yarn-soda, factory, mechanical plant, production, specialization.

KIRISH XX asrning ikkinchi yarmida Buxoro viloyatida gaz, neft, kimyo, yengil sanoat, energetika, mashinasozlik, sanoat materiallarini qayta ishlash va tayyorlash, uy-joy qurish, ip-yigiruv sohalari va boshqa sanoat tarmoqlari nisbatan taraqqiy etganligi, shuningdek, viloyat xalq xo'jaligi taraqqiyoti rejalarida to'qimachilik sanoatini rivojlantirish, mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojni talab darajasiga yetkazish uchun Buxoroda texnika instituti, texnikumlar, maxsus kurslar tashkil etilib, amaliyot va tajriba almashinish jarayonlariga e'tibor qaratilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Buxoro ip-gazlama kombinatida ishlab chiqarish faoliyati yuqori bo'lishi uchun salohiyatli va yetuk ishchi xodimlarni tayyorlashda juda katta samarali ishlar qilingan. O'zbekiston SSR Yengil sanoat vazirligining 1971-yil 17-dekabr 514-raqamli buyrug'i asosida 1972-yil 21-iyuldan ikki yilga Toshkent to'qimachilik kombinatiga 47 kishi o'qish va ishlab chiqarish amaliyotida qatnashish uchun, 197-yil 17-fevralda 15 nafar yoshlar bir yilga 7-kasb-hunar bilim yurtida o'qib, Farg'ona viloyatidagi to'qimachilik kombinatida tajriba o'rttirish uchun yuborilgan.

Farg'ona viloyatidagi 7-kasb-hunar bilim yurtidan Buxoro ip-gazlama kombinatiga 1972-yil 18-iyuldan 25-dekabrgacha 11 nafar kishi qurilish ishlarida amaliyot o'tash uchun kelgan. Amaliyot davomida soatbay hisobidan ularning har biriga 37 so'm 2 tiyin va 25 foiz mukofot pullari berilgan. Ular 5-toifali yigiruvchilar bo'lib, jumladan, Firuza Aybusheva, Zuhra Mamadova, Muqaddas Tuxtayeva, Sayyora Raupova va Natalya Makarovalar. 1972-yil 20-iyulda bir yilga 110 kishi Farg'ona viloyatiga 7-kasb-hunar bilim yurtida o'qish uchun yuborilgan.

Buxoro ip-gazlama kombinati direktori U. Umarbekov tomonidan 1973-yil 2-dekabrda Namangan to'qimachilik kombinatiga bir yil muddatga o'quv mashg'ulotlarini tajribada qo'llash uchun 19 kishi yuborilgan, ularga har oy 45 so'm

maosh to‘langan.

Buxoro ip-gazlama kombinatini qurilish ishlari shiddat bilan ketayotgan bir vaqtda malakali kadrlarni tayyorlash uchun 1972-yilda Buxoro shahrida kombinat negizida 100-sonli Yengil sanoat texnikumi ochilgan. Texnikum talabalaridan 11 kishi Toshkent to‘qimachilik kombinatiga ish o‘rganishga yuborilgan. Ularga 72 so‘m oylik to‘langan.

100-sonli Yengil sanoat texnikumida Buxoro ip-gazlama kombinat homiyligida to‘rt qavatli yotoqxonona binosi, 300 o‘rinli oshxonona, ikki qavatli jamoat binosi, ikkita sport zal, to‘rt qavatli o‘quv binosi va ikki qavatli o‘quv ustaxonalari qurib ishga tushirilgan. Texnikumda sport bazasi yildan-yilga yaxshilanib borishiga erishilgan. Texnikumga viloyatning turli hududlaridan maktabning 8-10-sinflarni bitirgan qizlar, majburiy harbiy xizmatdan qaytgan yigitlar qabul qilingan. Talabalarga 70 so‘m miqdorida oylik to‘langan, turar-joy bilan ham ta‘minlangan. 1977-yil noyabr oyida texnikumda 125 talabaga mo‘ljallangan yangi yo‘nalishlar ochilgan. Paxta yigirish yo‘nalishida 50 ta talaba, tola sifatini aniqlash yo‘nalishida 50 ta talaba va gazlama pardoqlash yo‘nalishida 25 ta talaba tahsil olishni boshlagan.

1979-yilgi hisobotlarga ko‘ra texnikumda 1972–1979-yillar davomida 2370 dan ortiq yosh malakali kadrlarni tayyorlab, ular amaliyotlarini Buxoro ip-gazlama kombinatida bajargan. Texnikumni tamomlagach kombinatda ish faoliyatlarini davom ettirganlar. 1980–1982-yillar davomida texnikum va kombinat o‘rtasida hamkorlik yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. 1983-yildan texnikumda “Tikuvchilik” mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlana boshlagan.

1979-yilda Buxoro to‘qimachilik kombinatining tibbiy-sanitariya qismida moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kombinatni tibbiyot xodimlari bilan ta‘minlash, fabrika ishchi va xizmatchilariga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilgan. Buxoro to‘qimachilik kombinati yonida tashkil etilgan tibbiyot bo‘limida tibbiy yordam sifati, diagnostika va davolash usullari yaxshilangan. Travmatologiya, tomoq-burun, tug‘ruq va ginekologiya bo‘limlarida yangi murakkab jarrohlik turlarini amalga oshirish uchun mutaxassislar taklif qilina boshlagan.

Toshkent Politexnika institutining Buxoroda kechki umumtexnika fakulteti o‘z faoliyatini 1959-yildan 1972-yilgacha davom ettirib, 1972-yildan boshlab Toshkent Politexnika institutining filialiga va 1978-yildan Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiya institutiga aylantirilgan.

Buxoro ip-gazlama kombinatini qurishda maxsus mutaxassis quruvchilarga hamda malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj va talab ko‘payganligidan Toshkent Politexnika institutining filiali bo‘lib kelgan institut 1978-yil sentabrdan boshlab Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiya instituti sifatida mustaqil ish yurita boshlagan. Buxoroda ish boshlagan institutning rektori O‘zbekiston Respublikasi FA akademigi Nusrat A‘zamovich Parpiyev tayinlangan. Buxoro viloyati to‘qimachilik sanoatini turli sohalari bo‘yicha malakali mutaxassislar bilan ta‘minlashda bu institutning o‘rni ahamiyatlidir.

Institutda To‘qimachilik va yengil sanoat fakulteti 1979-yilda tashkil etilgan bo‘lib, o‘quv jarayonlarini takomillashtirish uchun amaliyotlar tajribali ustozlar boshchiligida Buxoro ip-gazlama kombinatida amalga oshirilgan. 1979-yildan “To‘quvchilik”, “Yigiruv” mutaxassislari bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlangan bo‘lsa, 1982-yildan boshlab “Tikuvchilik mahsulotlari texnologiyasi”, “Yengil sanoat mashina va apparatlari” mutaxassislari bo‘yicha to‘qimachilik sanoatini turli tarmoqlarini rivojlantirish uchun malakali kadrlar tayyorlashga kirishilgan. To‘quvchilik sohasini rivojlantirish uchun Moskva davlat dizayn va texnologiya

universiteti va Ukraina institutlarida chop etilgan o'quv adabiyotlari va jurnallar bilan fakultet va kafedralarning fondi boyitilgan.

O'zbekiston SSR Yengil sanoati vaziri M.X. Qurbonov tomonidan chiqarilgan 1983-yil 7-sentabr 360-sonli buyruq asosida Urganch ipak o'rash fabrikasida, Toshkent chinni zavodida va filiallarida, 8-mart nomidagi Samarqand tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmasi va filiallarida, Toshkentdagi 2-son Yangiyo'l poyabzal fabrikasida Buxoro to'qimachilik kombinati uchun kadrlar tayyorlashda hamkorlik shartnomalari tuzilgan. 1983-yilda Buxoro to'qimachilik kombinati to'quvchi, tikuvchi va ishchilari malakasini oshirish uchun shartnomada ko'rsatilgan viloyatlarga borib tajribalarini oshirganlar.

Kombinatda ishchi va muhandis-texnik xodimlarning ilmiy-texnikaviy bilimini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilgan. Kombinat majlislarida yillik va istiqbolli texnik-ijtimoiy rivojlantirish rejasining bajarilishining borishi ko'rib chiqilgan. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirishni joriy etish rejalarini amalga oshirish bo'yicha kombinat va oliy dargohlar o'rtasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borish uchun shartnomalar tuzilgan. 1982–1983-yillarda Toshkent to'qimachilik instituti va Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat instituti olimlari, Buxoro ip-gazlama kombinatining filiali G'ijduvon ip-yigiruv fabrikasida "Yigiruvni takomillashtirish" yo'nalishida o'zaro hamkorlik ishlari olib borilgan. Bu hamkorlikning iqtisodiy samarasi natijasida ishlab chiqarish 1984-yilda 60 ming so'mni tashkil etgan.

Oliy o'quv yurtlari va texnikumlarda o'qishni davom ettirish istagi bilan maydonga chiqqan yoshlar ishdan ajralmagan holda Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat institutining Yengil sanoat fakultetida kechki ta'limda o'qishgan. Buning uchun kombinat tegishli sharoitlarni yaratib bergan. Birinchi yigiruv-to'quv fabrikasining yigiruv sexi boshlig'i A. Boltayev, shu fabrikaning tarash sexi boshlig'i N. Bobomurodov, to'quv sexi boshlig'i X. Mavlanov, Sh. Norov, to'quvchi R. Esanova, I. Rahmatova, usta yordamchisi A. Teshayev, yigiruvchi R. Nazarova va boshqa ko'plab ilg'or ishchilar ishdan ajralmagan holda o'qishni davom ettirganlar.

1979-yil davomida 5000 dan ortiq maktab o'quvchilari kombinat rahbariyati tomonidan kombinat bilan tanishtirilgan. Buxoro shaharida joylashgan 18-maktab, 38-maktab va viloyatdagi ko'plab maktablarda, boshqarmalarda mehnat va kasb-hunarga yo'naltirish burchaklari tashkil etilgan. Bunday burchaklarda ko'rgazmali qurollar, ishlab chiqarilgan mahsulotlardan namunalar va ishchilarning ish jarayonidagi fotosuratlar bo'lgan. Bundan maqsad to'qimachilik kombinatiga o'quvchilarni qiziqish va istaklarini oshirishdan iborat bo'lgan. 1979-yil 15–25-may kunlari shahar maktablarining 1980 ta o'quvchilar ota-onalari bilan birga kombinatga sayohatga kelishgan. Ushbu yilning 11-maydan 9-iyuligacha bo'lgan yozgi ta'tilda kombinatda 600 ta katta yoshdagi maktab o'quvchilari va talabalar guruhi amaliyot o'tab o'z mehnatlari bilan ishtirok etganlar. O'quvchilarning ko'pchiligi o'quv yili boshlangunga qadar kombinatda ishlash uchun qolgan. Shaharda maktab o'quvchilari uchun ikkita o'quv kursi tashkil etilgan. Buxoro shahridagi 12-maktabda to'qimachilik sir-asrorlari va tajribalari haqida to'garak tashkil etilgan. Maktab o'quvchilari darsdan keyin to'quvchilik va yigiruv ishi bo'yicha shu maktabda tashkil etilgan o'quv markaziga borganlar.

To'qimachilik kombinatining fabrika vakillari tomonidan shahar va viloyatdagi maktab bitiruvchilari o'rtasida yoshlarni kasbga yo'naltirish bo'yicha tadbirlar muntazam olib borilgan. To'qimachilik fabrikasida ishlab, o'qishni davom ettirish istagida bo'lgan ishchi-xizmatchilarni Yengil sanoat texnikumiga, Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiya institutiga o'qishga yo'llanmalar berilgan.

Ishlab chiqarish jarayonlarida kadrlar masalasi asosiy o‘rinni hal qilishini anglagan rahbariyat kasaba uyushma, komsomol tashkilotlari ularni tayyorlash masalalariga jiddiy e‘tiborini qaratgan. 1980-yildan boshlab Yengil sanoat texnikumida har yili 500 dan ortiq muhandis-texnik xodimlar tayyorlash rejaga kiritilgan. 1980–1986-yillarda Yengil sanoat texnikumida 3000 dan ortiq, tumanlardagi kasb-hunar bilim yurtlarida 2000 dan ortiq to‘quvchi ishchilar tayyorlangan. O‘rtacha 1977–1985-yillarda Buxoro texnologiya institutining kechki bo‘limida 250 dan 350 nafargacha kombinat ishchilari tahsil olib malakasini oshirgan.

Ishchi xodimlarga zaruriy sharoitlar yaratish maqsadida ularning madaniy hordiq chiqarishlari uchun 1986-yil kombinatda Sadridin Ayniy nomidagi viloyat musiqali drama teatri aktyori F. Abdullayev rahbarligidagi “Bahor” xalq teatri, “Tong” vokalcholg‘u ansambli, “Go‘zal” xalq ansambli faoliyat ko‘rsatgan. 30 dan ortiq kombinat ishchilari madaniyat texnikumi o‘qituvchisi A. Gelfand rahbarligida havaskor kinostudiya faoliyat yuritgan.

Kombinat jamoasida ko‘plab tashviqot-targ‘ibot va tashkiliy ishlar “Buxoro to‘qimachisi” gazetasi tomonidan olib borilgan. 1978–1981-yillarda gazetada 5 ta ishchi muxbir bo‘lgan bo‘lsa, 1991-yillarda ishchi va muxbirlar soni 200 ga yetgan. “Buxoro to‘qimachisi” gazetaning rahbari V. Yusupov, 1986-yildan esa tajribali jurnalist B. G‘ulomov muharrir bo‘lib ishlagan. Gazeta tahririyatining a‘zolari ishchilar, yigiruvchilar, to‘quvchilar, chilangarlar va hunarmandlar bo‘lgan. Gazeta tahririyati viloyat va respublika matbuot organlari bilan ijodiy hamkorlikda bo‘lib, ko‘rik-tanlovlarda qatnashib kelgan. 1978–1985-yillarda gazetaning asosiy e‘tibori ishchilar, tashabbuskorlar, musobaqa yetakchilari va ishlab chiqarish sur‘atlari haqidagi ma‘lumotlar berishga qaratilgan.

Xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlashda yengil sanoatning tarmog‘i bo‘lgan to‘qimachilik fabrikalari muhim yetakchilardan hisoblangan. Maxsus va qisqa kurslarda ularga to‘qimachilik sirlari o‘rgatilib ish bilan ta‘minlangan.

Kadrlar tayyorlash borasida 1982-yilda kombinat ishchilaridan 1003 kishi maxsus kurslarda malakasini oshirgan. Sanoat texnika kurslarida 530 kishi o‘z malakasini maxsus maqsadli kurslarda oshirgan. Maktab bitiruvchilaridan reja asosida 400 kishi ishga olingan. Ular kombinatda tajribasiga qarab taqsimlangan. 1982-yilda 301 nafar yigiruvchi, 481 nafar to‘quvchi va 148 nafar kir yuvuvchi bo‘lib ishga kirgan.

SSSR Vazirlar Kengashining 1977-yil 22-dekabrda qarorlariga muvofiq umumta‘lim maktablari o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalash hamda ularni mehnatga tayyorlashni yanada takomillashtirish yuzasidan amaliyot ishlar Buxoro ip-gazlama kombinatida amalga oshirilgan. Buxoro ip-gazlama kombinatida maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish va mehnatga o‘rgatish bo‘yicha kengash tashkil etilgan bo‘lib, direktorning kadrlar bo‘yicha o‘rinbosari O.F. Kenjayeva maktab bilan kasbga yo‘naltirish ishlarini homiylikdagi 30-maktab bilan hamkorlik olib borilgan. 1977-yildan buyon to‘quvchilik yigiruvchilik kasblari o‘rgatib kelingan. 1977–1982-yillar davomida 9-10-sinf o‘quvchilaridan 470 nafar bitiruvchilarga nazariy va amaliy tajribalarni o‘rgatish uchun maxsus ustalar amaliyotdan dars berganlar.

Kombinatda 1982-yil 6-maydan 18-maygacha “Ochiq eshiklar kuni” tashkil etilgan. Unda 1896 nafar o‘rta maktab o‘quvchilari va 1800 nafar o‘quvchilarning ota-onalari ishtirok etganlar. 1982-yil iyul oyida to‘qimachilik fabrikalarida eng yaxshi ishlagan maktab o‘quvchilarining ota-onalari bilan bilan radio eshittirishlar uyushtirilgan. 1982-yilda ikkinchi yigiruv-to‘quv fabrikasi uchun yangi ishchilarni ishga olish va o‘qitish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilgan. Reja bo‘yicha 1137 kishi nazarda tutilgan bo‘lib, o‘qitish 100-sonli Yengil sanoat texnikumida amalga

oshirilgan.

Kombinatda yoshlarni g'oyaviy-siyosiy tarbiyalashga katta e'tibor qaratilgan. Komsomol yoshlar guruhlarini tuzilib, ularga yigiruv-to'quv sohalarini takomillashtirish bo'yicha targ'ibotchi guruhlarda kadrlar tayyorlanib borilgan. 1983-yilda komsomol yoshlar guruhlarida 3 mingdan ortiq kishi faoliyat olib borgan. Komsomol tashkilotlarida 1200 nafar talaba bo'lib, har bir talaba rejadani tashqari jamg'armalar fondini yaratishda faol ishtirok etganlar. Moskva shahrida bo'lib o'tilishi rejalashtirilgan Butunjahon yoshlar va talabalar festivalini munosib kutib olishga qaror qilingan. O'zbekiston to'qimachilik sanoatining rivojiga hissa qo'shishni komsomol yoshlar va talabalar o'zlarining burchlari deb bilishgan. Kombinat yoshlari ko'p marta ommaviy shanbalik o'tkazib, festival fondiga 20 ming so'mdan ortiq mablag' o'tkazganlar. Biroq yoshlar tashkilotlari faoliyatiga kombinat tomonidan yetarlicha e'tibor berilmagan. Kombinat yoshlarining keng qamrovli rejali tadbirlari hamma vaqt ham amalga oshirilmagan.

To'qimachilik kombinatining yigiruvchisi B.D. Istamova 180 nafar xotin-qizlarga o'rnatilgan sifatida fidoyilik bilan mehnat qilgan. U kasb-hunar bilim yurtini tamomlagach Buxoro ip-gazlama kombinati ishga tushirilgan dastlabki kunlarda ishga kirgan. Me'yor bo'yicha ish vaqtidan oqilona foydalanish, ilg'or tajribalarni tezkorlik bilan qo'llash, xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish va belgilangan rejani ortiq'ini bilan bajarish uchun mehnatini ayamagan. Topshiriqni 130–140 foizga bajarib, faqat a'lo sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga erishgan.

1987-yilda oliy o'quv yurti va texnikum talabalaridan 811 kishi, shundan Buxoro to'qimachilik kombinatida 263 kishi, Vobkentda 136 kishi, G'ijduvonda 40 kishi, Olotda 230 kishi va Qorako'lda 40 kishi amaliyotni o'tagan. Bundan tashqari, kombinat tomonidan Kalinin, Toshkent, Donesk va Litvada bo'yash va pardozlash fabrikalariga 102 nafar ishchi mahoratini oshirish uchun yuborilgan. 1988-yilda bundan ham ko'proq ishchilar tayyorlangan. 874 kishidan Buxoro to'qimachilik kombinati uchun 664 kishi, filiallar uchun 190 kishi, 1989-yilda 900 ishchi o'qitilgan va tajribalarini Buxoro to'qimachilik kombinatida oshirgan. 1987-yil 3-iyulda Yo'ldosh Oxunboboyev nomidagi Toshkent xalqlar do'stligi ordeni To'qimachilik va yengil sanoat instituti rektorining yo'llanmasi bilan "To'qimachilik materialshunosligi" fakultetida o'qigan talaba R.B. Qurbonov G'ijduvon ip-yigiruv fabrikasiga tavsiyanoma bilan ishga yuborilgan. Oliy dargohda olgan bilimlarini ip-yigiruv fabrikasida ishlab tajriba o'rttirgan.

Xulosa. Xulosa o'rni shuni ta'kidlash kerakki, ko'p millatli Buxoro xalqi to'qimachilik sanoati korxonasida ishlab ish tajribasini o'rttirgan. Kombinat homiyligida ko'pgina bilim yurtlari, maktablar, tibbiyot maskanlari va madaniy maskanlar qurilgan. Kombinat ishchilari ish tajribasini o'rttirish uchun respublikaning turli viloyatlaridagi to'qimachilik kombinatlariga amaliyotga yuborilgan. Hattoki yozgi uch oylik ta'tilda talabalar va maktabning yuqori sinf o'quvchilari kombinatda ishlab tajriba o'rttirib o'z mehnatlari bilan Buxoro to'qimachilik sanoatini salmog'ini oshirishga hissa qo'shgan.

Tavsiyalar. Tanlangan mavzu bo'yicha to'plangan ma'lumotlar asosida to'qimachilik sanoatining rivojlanishida xotin-qizlarning o'rni yoki mutaxassisning ahamiyatli tomonlarini tahlil etuvchi ilmiy anjuman o'tkazish maqsadga muvofi. Iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish uchun halqaro hamkorlikda investitsiyalar kiritilgan va bu haqida xalqaro ilmiy anjuman tashkil qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlarva manbalar

1. Сааков В. В Сотни адресов (История Бухарского текстильного комбината)



–Ташкент: Мехнат, 1991. – С. 45.

2. Исмоилова Г. Ўзбекистонда хотин-қиз ишчи кадрлар тайёрлаш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – Б. 22.

3. Бухарское городское училище №100 // Текстильщик Бухары, 9 июня 1979 года.

Ўзбекистон тўқимачилик саноатининг ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – Б. 15.

5. Вухоро viloyat davlat arxivi, 1362 - fond, 1 - ro'xat, 137 - yig'ma jild, 137 - varaq.

6. O'zbekiston milliy arxivi, P – 2792 - fond, 1 - ro'xat, 108 - yig'ma jild, 124 - varaq.

7. Вухоро viloyat davlat arxivi, 1 - fond, 1 - ro'xat, 2 - yig'ma jild, 85 – 98 - varaqlar.

8. Utayeva FX To'qimachilik sanoatini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash.// ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 18 (18) 2022.

9. Utayeva FX MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORODA TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHI // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 18 (18) 2022.

10. БУХОРОДА ИП-ГАЗЛАМА КОМБИНАТИ ҚУРИЛИШ ТАРИХИ // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 10 (10) 2022.